

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

**Rektor _____ O.Sh.Bazarov
“___” _____ 2022 yil**

«YO'NALISHGA KIRISH»

fanidan

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400000 – Qishloq va suv xo‘jaligi

Ta'lif sohasi: 430000 – Qishloq xo‘jalik texnikasi

Ta'lif yo‘nalishi: 60712400- Avtomobilsozlik va traktorsozlik

Qarshi-2022 y.

1.	Fanning nomi: <i>Yo‘nalishga kirish</i>	Fan (modul) turi: <i>Tanlov fan</i>	Fan (modul) kodi: <i>YK 1102</i>	Ta’lim tili: <i>o‘zbek</i>
	O‘quv yili: <i>2022/2023</i>	Kurs va semestr <i>I kurs, I semestr</i>	ECTS krediti: <i>2</i>	Haftalik dars soati: <i>2</i>
	Umumiy o‘quv soatlari: <i>60</i>	Ma’ruza: <i>14</i>	Amaliy mashg‘ulot: <i>16</i>	Mustaqil ish: <i>30</i>
2.	II. Fanning mazmuni			
	<p>Ushbu dastur ta’lim to‘g‘risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi, yo‘nalishning Davlat ta’lim standarti, bakalavrning bilim saviyasi; oliy maktab - universitetda o‘qitish usullari, universitetning tuzilishi, fakultetlar va kafedralar, ularda o‘qitiladigan fanlar, talabalarning o‘quv va ilmiy ishlarini tashkil etish, ular bilimini baholashning reyting tizimi, traktor va avtomobillar hamda qishloq xo‘jalik mashinalarining tasnifi va belgilanishi, ularning asosiy qism va agregatlari, joylashish sxemalari. O‘zbekistonda avtomobilsozlik, traktorsozlik va qishloq xo‘jalik mashinasozligi sohasini tarixi va rivojlanish istiqbollari, mamlakatimiz va chet ellarda ushbu sohada fan va texnika yutuklari masalalarini qamraydi.</p> <p>Dastur O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standarti - 60712400-Avtomobilsozlik va traktorsozlik yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash mazmuni va saviyasining majburiy minimumida bo‘lgan talablariga muvofiq tuzilgan.</p> <p>2.1. Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda o‘zlari tanlagan yo‘nalishiga qiziqish uyg‘otish, talabalar bilimi, o‘quvi va ko‘nikmalariga qo‘yilgan talablar, fanni o‘tish usulublari hamda respublika agrar sohasini barqaror rivojlanishida qishloq xo‘jaligi texnikalarining ahamiyati to‘g‘risida bat afsil tushuncha va bilimlarni shakllantirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi – Respublika iqtisodiyotida agrar sohaning o‘rni va uni barqaror rivojlantirishda Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo’llash, ta’lim yo‘nalishi bakalavrlarining rolini talabalar ongiga chuqur singdirish, qishloq xo‘jaligi texnikalari, ulardan amaliyotda foydalanish, respublika qishloq xo‘jaligining taraqqiyot yo‘li, qishloq xo‘jaligini texnikalarining buguni, kelajagi va muammolari haqida talabalarga ma’lumotlar yetkazish, respublika ta’lim tizimi va uning huquqiy asoslari, Davlat ta’lim standarti va oliy ta’limni universitet faoliyati misolida amalga oshirilishi to‘g‘risida ma’lumotlar berish, agrar soha tarmoqlarida qishloq</p>			

xo‘jaligi texnikalari va ularni o‘ziga xos tomonlarini talabalar tafakkuriga singdirishdan iborat.

2.2. Fan bo‘yicha talabalarning bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar.

O‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- agrar sohada qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirishning iqtisodiy samaradorligi va kelajagi **haqida tasavvurga ega bo‘lishi**;
- qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash tizimini;
- respublika ta’lim tizimi, turlari, bosqichlari va shakllarini;
- ta’lim muassasasining tarkibiy tuzilmasi, talabaning huquq va majburiyatlarini, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohatlarning ma’no-mazmunini, taqsimlash va foydalanish tizimini;
- ta’lim va qishloq xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunlarni **bilishi va ulardan foydalanish**;
- qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyalash sohasidagi asosiy kashfiyotlarni va ular asosida yaratilgan qishloq xo‘jaligi texnikalaridan foydalana olish;
- respublika qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyalash tizimi va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi**;
- “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va ta’lim tizimi xuquqiy va meyoriy o‘quv hujjatlaridan bilim olish jarayonida foydalanish;
- o‘quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish **malakalariga ega bo‘lishi kerak**.

2.3. Asosiy nazariy qism.

Fanning nazariy mashg‘ulotlari (ma’ruzalar) mazmuni

1-mavzu. Yo‘nalishga kirish fanini o‘rganishning maqsadi va vazifalari.

Yo‘nalishga kirish fanining maqsadi va vazifalari. Fanning agrar soha uchun kadrlar tayyorlashdagi o‘rni. Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnika va texnologiyalarni qo’llash bakalavr yo‘nalishi bitiruvchilarining kasbiy faoliyati turlari va ob’ektlari.

2-mavzu. Ta’limning huquqiy asoslari.

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Respublikada ta’limni xuquqiy kafolatlari, ta’lim to‘g‘risidagi qonunning mazmun va mohiyati. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va undan ko‘zlangan maqsad. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni amalga oshirish natijalari.

3-mavzu. Bakalavriat yo‘nalishi me’yoriy xujjatlari.

Yo‘nalishning Davlat ta’lim standarti. O‘quv rejali va dasturlari. O‘quv rejasidagi fanlarning mutaxassislar shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati. Talabalar bilimini baholash tizimi. Kurs ishlari va kurs loyihalari, malakaviy amaliyotlar va malakaviy bitiruv ishi.

4-mavzu. Oily ta’lim muassasalarining tuzilishi va mutaxassislik kafedrasi.

Institutning tuzilishi. Boshqaruva strukturasi, fakultetlar, bo‘limlar va

kafedralar. Mutaxassislik kafedrasi va uning ishlashi.

5-mavzu. O‘quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish.

Talabalarning o‘quv va ilmiy ishlarini tashkil etish. Ma’ruza matnlari bilan ishlash. Talabalarning mustaqil ishlashi. Iqtidorli talabalarni aniqlash. Iqtidorli talabalar bilan ishlash.

6-mavzu. Traktor va avtomobillar, qishloq xo‘jalik mashinalari.

Traktor va avtomobillar tasnifi, belgilanishi. Qishloq xo‘jalik mashinalarining tasnifi va belgilanishi.

7-mavzu. Avto-traktorsozlik korxonasi strukturasi.

Qishloq xo‘jaligi texnikalarining klassifikatsiyasi. Foydalanish yo‘nalishlari ekspluatatsiya qilishni o‘ziga xos tomonlari.

Amaliy mashg‘ulotlarining taxminiy ro‘yxati

1. Ta’limning huquqiy asoslari. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun ba Kadrlar tayyorlash milliy dasturini o‘rganish
2. Ta’lim turlari. Oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’limni o‘rganish
3. QMIIning tuzilishi va mutaxassislik kafedrasini o‘rganish
4. Mutaxassislik kafedrasida mavjud o‘quv-laboratoriya jihoz va uskunalari bilan tanishish
5. Traktor va avtomobillarning umumiy tuzilishi bilan tanishish
6. Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi va ishlashini o‘rganish
7. Qishloq xo‘jaligidagi tuproqqa asosiy va yuza ishlov berish hamda o‘g‘itlash mashinalari bilan tanishish
8. Ko‘chat ekish, qator oralariga ishlov berish va kimyoviy himoya qilish mashinalari bilan tanishish

2.4. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan faydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

2.5. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – talabalar o‘qituvchi rahbarligida o‘quv jarayonida olgan bilim va ko‘nikmalarini darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, o‘quv-uslubiy majmualar, internet ma’lumotlari, o‘quv-vizual va multimedia materiallari yordamida mustahkamlaydilar.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fan boblari va mavzularini o‘rganish;

- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo‘yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o‘rganish;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari va mavzularni chuqur o‘rganish;
- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta’lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o‘z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tayyorlash va h.k..

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. Xorijiy mamlakatlardagi fermer xo‘jaliklari
2. Xorijiy mamlakatlarda Firma-diler-fermerlarning o‘zaro munosabatlari.
3. Iste’molchilarga qishloq xo‘jalik texnikalarini yetkazib berish
4. Agrosanoat mashinalarini ehtiyoj qismlar bilan ta’minlash tajribasi
5. Qishloq xo‘jalik texnikalarining raqobatbardoshligi to‘g‘risida
6. Xorijda qishloq xo‘jalik texnikalaridan foydalanish
7. O‘zbekistonda yaratilayotgan va tayyorlanayotgan texnika vositalari
8. Xorijiy firmalar bilan hamkorlik
9. Dehqon va fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi
10. Paxtachilik traktorlarining evolyusiyasi
11. Energetik va transport vositalari
12. Umumiy foydalanishdagi tuproqqa ishlov berish mashinalari
13. Ekish va ko‘chat o‘tqazish mashinalari
14. O‘simgilklarni yetishtirish, o‘g‘itlash va o‘simgilik kasalliklariga qarshi kurashishdagi ishlatiladigan mashinalar

3. III. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar).

“Yo‘nalishga kirish” fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr quyidagilar bo‘yicha nazariy va amaliy **bilimga ega bo‘lishi kerak**:

- agrar sohada qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirishning iqtisodiy samaradorligi va kelajagi **haqida tasavvurga ega bo‘lishi**;
- qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash tizimini;
- respublika ta’lim tizimi, turlari, bosqichlari va shakllarini;
- ta’lim muassasasining tarkibiy tuzilmasi, talabaning huquq va majburiyatlarini, qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan islohatlarning ma’no-mazmunini, taqsimlash va foydalanish tizimini;
- ta’lim va qishloq xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunlarni **bilishi va ulardan foydalanish**;

	<ul style="list-style-type: none"> - qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyalash sohasidagi asosiy kashfiyotlarni va ular asosida yaratilgan qishloq xo‘jaligi texnikalaridan foydalana olish; - respublika qishloq xo‘jaligi mexanizatsiyalash tizimi va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilish <i>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi</i>; - “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va ta’lim tizimi xuquqiy va meyoriy o‘quv hujjatlaridan bilim olish jarayonida foydalanish; - o‘quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish <i>malakalariga ega bo‘lishi kerak</i>.
4.	<p style="text-align: center;">IV. Ta’lim texnologiyalari va uslublari</p> <p>Fanni o‘qitishda an’anaviy usullar bilan bir vaqtida yangi texnologiyalardan foydalanish samarali bo‘ladi. Bu ishda talabaning mustakil ishini to‘g‘ri tashkillashtirishga intilish lozim; o‘qitishning elektron vositalari, internet orkali olinadigan ma’lumotlar, elektron darsliklar; interaktiv usuldan foydalanish; ekspress so‘rovlari; texnik vositalarni qo‘llash va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, masofadan o‘qitish (modul platformasi), darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ma’ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma’ruzalar o‘qish, video-audio mashg‘ulotlar va elektron resurslar (Internet tarmog‘i orqali) dan foydalaniladi.</p> <p>O‘qitish uchun darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, animatsiyalar, amaliy mashg‘ulot darslarida mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyalardan: munozara, jamoaviy muhokama yoki muammolar ruyxatini tuzish, vaziyatni o‘rganish, tahlil qilish, babs yoki munozaralar olib borish, tanqidiy fikrlash, rolli o‘yinlar, kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum, klaster (tutam, bog‘lam), baliq skeleti, FSMU, bumerang, “T-sxema”, blitz-so‘rov, “Nima uchun?” texnologiyalari, ma’ruza mashg‘uloti- BBXB (Bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), konseptual va insert jadvallaridan keng foydalaniladi.</p> <p>Fan bo‘yicha ma’ruza matnlarini tayyorlashda chet mamlakatlar, jumladan Hamdo’stlik mamlakatlarida yangi chop etilib, Internet tizimi orqali tarqatilgan elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va ma’ruza matnlaridan foydalaniladi.</p> <p>Amaliy mashg‘ulotlarda mashinalarning ishchi qismlari, ularning tuzilishi va ishlash prinsipini hamda ularning animatsiya ko‘rinishida va fan bo‘yicha savol javoblardan, laboratoriya mashg‘ulotlarida mashina va jihozlardan foydalaniladi.</p> <p>Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim. Bu ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.</p> <p>Tizimli yondashuv. Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o‘zida mujassam etmog‘i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha</p>

	<p>bo‘g‘inlarini o‘zaro bog‘langanligi, yaxlitligi.</p> <p>Faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o‘quv jarayonida uning barcha qibiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo‘naltirilgan ta’limni ifodalaydi.</p> <p>Dialogik yondashuv. Bu yondoshuv o‘quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o‘z-o‘zini faollashtirishi va o‘z-o‘zini ko‘rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.</p> <p>Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish. Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.</p> <p>Muammoli ta’lim. Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo‘llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.</p> <p>O‘qitishning usullari va texnikasi. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, loyihalash usullari, amaliy ishlar.</p> <p>O‘qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o‘zaro o‘rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.</p> <p>O‘qitish vositalari: o‘qitishning an’anaviy shakllari (garslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.</p> <p>Kommunikatsiya usullari: tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o‘zaro munosabatlar.</p> <p>Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blitz-so‘rov, oraliq va joriy, yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o‘qitish diagnostikasi.</p> <p>Boshqarish usullari va vositalari: o‘quv mashg‘uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko‘rinishidagi o‘quv mashg‘ulotlarini rejalashtirish, qo‘yilgan maqsadga erishishda o‘qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.</p> <p>Monitoring va baholash: o‘quv mashg‘ulotida ham, butun kurs davomida ham o‘qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.</p> <p>Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o‘quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshadi.</p>
5.	<p>V. Talabalar bilimini baholash me’zonlari va kreditlarni olish uchun talablar</p> <p>Fanga oid nazariy materiallar ma’ruza mashg‘ulotlarini ma’ruzalarda</p>

	<p>ishtirok etish va kredit-modul platformasi orqali ma’ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.</p> <p>Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va o‘zlashtirish mashg‘ulotlarga to‘liq ishtirok etish va modul (Hemis) platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.</p> <p>Mustaqil ta’lim mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo‘yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.</p> <p>Fan bo‘yicha talabalalar test usulida oraliq nazorat va og‘zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.</p> <p>Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o‘zlashtirgan talabalarga tegishli ta’lim yo‘nalishi (magistratura mutaxassisligi) o‘quv rejasida ushbu fanga ko‘rsatilgan kredit beriladi.</p>
6.	<h2 style="text-align: center;">VI. Dasturning informatsion-uslubiy ta’minoti</h2> <p>Mazkur fanni o‘qitish jarayonida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ta’limning zamonaviy metodlari. Pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan: <ul style="list-style-type: none"> - Yo‘nalishga kirish fanining nazariy asoslarini o‘rganishda bo‘limlarga tegishli ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalaridan hamda o‘qitishning an‘anaviy uslublaridan; - Yo‘nalishga kirish fani bo‘yicha o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarida aqliy xujum, yakka, kichik guruhralar musobaqalari guruxli fikrlash va h.k.lar kabi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Mashg‘ulotlarda o‘quv televideniyasi, diaprojektor, kompyuter texnikalari, slaydlar, o‘quv kino va video filmlardan foydalanish ko‘zda tutiladi. <p style="text-align: center;">Tavsiya etilayotgan adabiyotlar</p> <p style="text-align: center;">6.1. Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Shoumarova M., Abdillayev T.A. Qishloq xo‘jalik mashinalari. Toshkent:-Fan, 2002. -367 B. (darslik) 2. Eichhorn Horst. Landtechnik. LandwirtschaftlichesLehrbuch. 4 Ulmer, Stuttgart, 1985. 3. Mamatov F.M. Qishloq xo‘jalik mashinalari. Toshkent: Voris-nashriyot, -2014. -390 B. (darslik) 4. Chuyanov D.Sh., Chorshanbiyev R.X. Yo‘nalishga kirish. Toshkent: Voris-nashriyot, -2020. -140 B. (o‘quv qullanma) 5. Matchanov R.D. Usmonov A.S. Agrosanoatmashinalari. Toshkent: Yangi asravlodi, 2002-295 B. (risola) 6. Kamilov A.I, Sharipov Q.A, Umurov N.T, Yusupov G.Y. Traktor va avtomobillar. Toshkent: 2011, -334B. (darslik)

6.2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Toshboltayev M.T. Mashina-traktor agregatlarini sistemali modellashtirishning tafsiliy-metodik asoslari. Toshkent, Fan va texnologiya, 2013. – 215 B. (monografiya)
2. T.Abdillayev., M.Shoumarova. G'alla kombayni va paxta terish mashinalari. Darslik. Toshkent 1999 y. 365 bet.
3. Toshboltayev M.T., Azizov SH. Fermer xo'jaliklari va mashina-traktor parklari uchun talab etiladigantexnika tarkibi va sonini hisoblash. Toshkent: Fan texnologiyalar, 2014. – 177 B (risola)
4. Ta'lif to'g'risidagi qonun. 1997 y. 29 avgust.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. 1997 y. 29 avgust.

6.3. Elektron resurslar:

1. www.bilim.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi sayti.
2. www.ziyo.edu.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi sayti.
3. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
4. <http://www.amazon.com/>
5. <http://bookree.org/>
6. <http://auto.ru/>
7. <http://auto.de/>
8. <http://traktor.ru/>

7. Fanning o'quv dasturi Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil “_____” dagi “_____-sonli” yig'ilishida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.
O'quv dastur Institut Ilmiy Kengashi (2022 yil “_____” №_____-sonli qaror) bilan tasdiqlangan.

Fan (modul) uchun mas'ullar:

Chuyanov D.Sh. - “Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis” kafedrasi professori v.b., t.f.d.

Taqrizchilar:

Qodirov U.I. – "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti dotsenti

Toirov I. – QarMII “QXM va S” kafedrasi dotsenti

